



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF THE INFLUENCE OF HISTORY FALSIFICATION ON HISTORICAL THINKING

Karimov Yuldash Ergashevich

senior lecturer of Gulistan state pedagogical institute

E-mail: yuldash1668@gmail.com

Abstract. The article discusses the causes and consequences of history falsification and its negative impact on historical thinking. It was argued that the system, based on colonialism and a monopolistic ideology, sought to gain public support by falsifying history, behind which malicious goals were hidden. The impact and consequences of falsifying history on social life structures are also explained.

Keywords: falsification of history, historical thinking, ideology, social consciousness, colonialism, identity, threat.

TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI

Karimov Yo'ldosh Ergashevich

Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada tarixni soxtalashtirishning sabab va oqibatlari, uning tarixiy tafakkurga salbiy ta'siri masalasi muhokama qilingan. Mustamlakachilik va yakka mafkuraga asoslangan tuzum tarixni soxtalashtirish orqali jamiyatning qo'llab-quvvatlashiga erishishni maqsad qilgani, uning ortida esa g'arazli maqsadlar yashiringanligi haqida bahs yuritilgan. Shuningdek, tarixni soxtalashtirish ijtimoiy hayotning konstruksiyalariga yetkazadigan ta'siri va oqibatlari izohlangan.

Kalit so'zlar: tarixni soxtalashtirish, tarixiy tafakkur, mafkura, ijtimoiy ong, mustamlakachilik, o'zlik, tahdid.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N28>

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatda milliy tiklanish jarayoni yuz berdi. Milliy tiklanishning negizi esa xalqimizning uch ming yillik tarixiga asoslanadi. So'nggi yuz yillikda tarixga mafkura ko'zognagidan qarash va tadqiq etish oqibatida soxtalashtirish yuz berdi. Mustaqillik va jamiyatda yangi paradigmalar shakllanayotgan sharoitda o'zlikni anglashga bo'lgan zarurat paydo bo'ldi. Bu esa mafkura ta'sirida yozilgan tarixni asl holida qayta tiklashni taqozo qildi. Globallashgan dunyoda o'z o'rnnini topishga intilayotgan xalq uchun tarixiy haqiqatlarni anglashi murakkab vaziyatlarda, tanlovlardan oldida to'g'ri yo'lni topib olishga yordam beradi. Shu ma'noda tarixni soxtalashtirishning sabab va oqibatlarini hamda xalqimiz tarixiy tafakkurga ta'sirini o'rganish dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarixni soxtalashtirish bilan bog'liq masalalarni o'rganish Sharqiy Yevropa va sobiq ittifoq hududida tashkil topgan mustaqil davlatlar uchun muhim masala sifatida ko'rib chiqila boshladi. O'tgan vaqt mobaynida tarixni soxtalashtirish bilan bog'liq masalalar ko'plab mutaxassislar – tarixchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va boshqa soha vakillarining tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Ayniqsa, Rossiya Federatsiyasida bir

qancha tadqiqotlar olib borildi [7]. Xususan, Livsov V.A., Pojidayev A.S.ning maqolasida tarixiy xotirani qadrsizlantirish (buzish)ning eng samarali mexanizmi sifatida tarixni soxtalashtirish ekanligi, ayniqsa, G'arbda fashizmga qarshi kurashda Sovet ittifoqining roli pasaytirib ko'rsatish tendensiyasi mavjudligi urg'ulanadi [5]. Rossiya tarixi dalillarini soxtalashtirishning davlat manfaatlariga yetkazadigan zarari masalasi Lushin A.N. tadqiqotlarida ilgari surildi [6].

O'zbekistonda ham tarixni soxtalashtirishga oid masalalarni oydinlashtirishga qaratilgan tarixiy mavzular G'ulomov A. [3], Rajabov Q. [8], Alimova D. [9] va boshqalarning tadqiqotlarida amalga oshirildi.

Muhokama. Tarixning xolis, obyektiv yozilganligiga shubha bilan qarash mavjud bo'lib, ayniqsa, hukmdorlar tashabbusi bilan yozilgan tarixga nisbatan ana shunday qarash keng tarqalgan. Ammo bir haqiqat borki, tarixni soxtalashtirishga urinishlar vaqt deb ataluvchi hakamning sinovidan o'ta olmagan.

Totalitar jamiyatlarda ochiqlik va erkinlikning mavjud emasligi sababli tarixni soxtalashtirish mafkura va tuzumga moslash holatlari yuz beradi. Sovet tuzumi davrida tarixni buzib talqin qilish, tarixni hokimiyat va siyosatning quroliga aylantirish maqsad-muddao bo'ldi. Buning oqibatida Turkistondagi milliy ozodlik harakati, qatag'onlik siyosati, yer-suv islohoti, Rossiyaning mustamlakachilik siyosati va h.k. masalalar yaqin tariximizning oq dog'lariga aylandi.

Tarixning mafkuraga bo'ysundirilishi, nafaqat shu tuzum tarixini, balki butun tarixni qayta mafkura chig'irig'idan o'tkazishga sabab bo'ldi. Tarix sinfiylik rakursida qaralib oq va qoraga ajratib yozildi. Tarixni soxtalashtirish oqibatida:

Birinchidan, tarixni buzib talqin qilish, haqiqatni yashirish, adolatga xiyonat qilish bo'lib, bu yovuzlikning boshlanishi va unga xizmat qilishdir;

Ikkinchidan, tarixni soxtalashtirish oqibatida bir necha avlod tafakkurida soxta ideallar, hayotdan yiroq tasavvurlar shakllandi;

Uchinchidan, tarixni soxtalashtirish millatchilik, ayirmachilik, xalqlar o'rtasida nizolarga sabab bo'ladi.

Lokalizm davrida davlatlar va xalqlar o'ziga xoslik va izolyatsiyaga urg'u berishgan bo'lsa, bugungi globallashuv sharoitida integratsiya va hamkorlik dunyo tartibotining muhim xususiyatiga aylandi. Mafkuraviy xavfsizlik nuqtai nazaridan milliy ayirmachilik, millatchilikdan geosiyosiy kuchlar o'zining g'arazli maqsadiga erishish yo'lida dastak sifatida foydalanishi mumkin. Tarixdan xalqlar, millatlar o'rtasida nizo, ziddiyat keltirib chiqarishni maqsad qilgan, voqeа-hodisalarni buzib talqin qiluvchilar ham mavjud.

"Soxtalashtirish – tarixiy fakt va hodisalarni ataylab, ba'zan esa g'arazli tarzda buzib ko'rsatishdir. Shuni tushunish kerakki, har qanday ilmiy nuqtai nazar hodisalarni ma'lum faktlar to'plamiga asoslangan holda talqin qilishdir. Ammo, biron shaxs ma'lum bir xulosaga asoslanib, so'ngra butun tarixiy fakt va hodisalar orasidan uni tasdiqlovchi voqealarni tanlasa, bu yerda yaqqol soxtalashtirish mavjud" [2].

V.Vyazemskiy bu fikrga qo'shiladi, u tarixni soxtalashtirishni tarixiy voqealarni ma'lum, ko'pincha siyosiy maqsadlarda ataylab buzib ko'rsatish deb tushunadi [10].

Bizning fikrimizcha, tarixni soxtalashtirish ajdodlar va avlodlar o'rtasida vertikal aloqadorlikni uzilishiga sabab bo'ladi, begonalashish, qadrsizlanish yuz beradi. Tarixni mafkuraviy va sinfiy pozitsiyadan o'r ganish soxta ideallar asosida insonlarni tarbiyalashga, tarixiy adolatni buzilishiga olib keladi. Tarixni soxtalashtirishdan ma'lum bir avlod tafakkurida

tarixiy haqiqatdan yiroq, soxta e'tiqod va ideallarga ishonch uyg'otish kabi maqsadlar ko'zlangan bo'ladi. Tarixni soxtalashtirish ko'pincha manipulyatsiya quroli sifatida qo'llanilganligi holatlari ham uchraydi.

Tarixda mustamlakachilar o'z yovuzliklarini madaniyat va taraqqiyot olib kirish deb izohlaydilar. Xususan, Rossiyaning Turkistonni bosib olishi progressiv hodisa sifatida qarash sovet davri tarixida kuzatilgan elementlardan biri edi. Tarixni soxtalashtirish yevropasentrizm va boshqa markazchilikka moyil tadqiqotchilar qarashlarida ham kuzatiladi. Jadidlar burjua manfaatlarini ifodalovchi, ekspluatatorlar sinfining g'oyaviy yetakchilari sifatida baholangan, ularning Vatan va xalq manfaatini ko'zlab yashaganligi xaspo'shlanib, burjua mafkurachilari sifatida taqdim etilgan.

Sovet davrida tarix siyosiyashtirildi, buning oqibatida Rossiyaning Turkistonni bosib olishi, "bosmachilar" harakati, quloglashtirish, kollektivlashtirish, qatag'onlik siyosatining mohiyati buzib talqin qilindi. "...milliy tarixni yaratmoqqa bel bog'lagan olim o'sha millatga mansub bo'lishi; uning aql-idroki, ilmiy va tarixiy qarashlari to'liq u yashayotgan mamlakat va xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Yoshligidan ovrupocha tarbiyalangan va bilim olgan, ona tilini unutib "katta og'a"li soniga o'tib ketgan olim qanday qilib milliy tarixni bitsin?! Axir, uning fikrlash tarzi, tarixga qarashlari va falsafasi, qo'yingki, butun zehniyati, mentaliteti xalqimiz intilishlari va manfaatlaridan farq qiladi-ku!.." [5].

1924-yilda Turkistonda milliy chegaralanishning o'tkazilishi sovet davrida milliy o'lkalarning o'z taqdirini o'zi hal qilish, ozodlikka erishishi deb talqin qilindi. Sovet davri adabiyotlarda milliy sotsialistik millatlarning shakllanish jarayoniga olib kelganligi ta'kidlandi. Tarixiy hodisaga bir yoqlama faqat bitta rakursdan turib baho berildi. Xorijda ushbu hodisani boshqa talqini aks etgan asarlar chop etildi. Masalan, Boymirza Hayitning 1971-yilda nemis tilida chop etilgan "Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida (XV asrning ikkinchi yarmidan – XX asrning so'ngiga qadar) degan asari 1975-yilda turk tilida nashr etilgan bo'lsa va nihoyat 2023-yilda o'zbek tilida ham nashr etildi.

Sovetlar tomonidan Markaziy Osiyoda o'tkazilgan milliy chegaralanish haqida yozar ekan: "Buning zaminida uzoqni ko'zlagan maqsad – ruslashtirish, yosh avlodni kommunistik ruhda voyaga yetkazib, boshqa slavyan xalqlari bilan birga mamlakatni ruslar tomonidan mustamlaka qilishni – o'zlashtirishni oxiriga yetkazish, ya'ni yerlik xalqlar – turklar va musulmonlarni bartaraf qilish, ongini o'zgartirib yuborish, rus an'analarini singdirish. Mana shu vazifani bajarishda mazkur "milliy davlatlar" sho'ro-rus tutumi maqsadini amalga oshiruvchi ajoyib vosita – quroldir" [1].

Sovet hukumati Turkistonda yagona davlat bo'lishini xohlamadi. "Bo'lib tashla hukmronlik qil" tamoyiliga asoslanib ish tutdi. Birinchidan, milliy xususiyatga qarab beshta respublika tashkil etildi. Qachonki mustaqil bo'ladigan bo'lsa, beshta davlatga aylanib birlasha olmasligiga poydevor qo'yildi. Ikkinchidan, ularga alohida-alohida alifbo joriy etildi. Chunki bir-birini tushunadigan xalqlarni madaniy jihatdan ajratishning eng "madaniy" usuli bir-birining yozuvini o'qiy olmasligidir. Oqibatda bu millatlar bir-biri bilan rus tilida muloqot qiladigan, xat-xabar almashadigan darajaga keltirildi. Uchinchidan, milliy chegaralanish shunday o'tkazildiki, oqibatda bugungi mustaqil davlatlar o'rtasida hal qilish muammoga aylangan chegara muammosi sun'iy ravishda yaratildi. To'rtinchidan, iqtisodiy jihatdan markazga qaram holda tutib kelindi, ularning bir-biriga iqtisodiy bog'liqligi uzoq yillar zaifligicha qoldi. Chunki, ularning iqtisodiyoti faqat xom ashyo yetishtirishga ixtisoslashtirilgan edi.

XX asrning 90-yillariga kelib Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishdi va 150 yilga yaqin davom etgan mustamlakachilikning zanjirlari uzildi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil bo'lgan bo'lsada, ammo mustamlakachilik davrida tamal toshi qo'yilgan "tuzoq"lar o'zining funksiyasini bajarishda davom ettiraverdi. Ulardan eng xavflisi milliy nizo o'choqlari yaratilgani bo'lib, ularga xohlagan paytda o't qo'yib yuborish mumkinligidir.

"Tarixiy tafakkur esa tarixda sodir bo'lgan voqeа-hodisalarni o'tmisht va bugun bilan bog'liqlik va aloqadorlik jihatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydigan, shu asosida qarorlar qabul qilish, munosabatlarni aniqlashtirish, baholash, g'oyalalar ilgari surish bilan bog'liq aqliy jarayon hisoblanadi" [4,91]. Tarixni soxtalashtirishning eng katta tahdidi bu yoshlarning tarixiy tafakkurni shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Global lashuv jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda davlatlarning integratsiyalashuviga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kelayotgan sharoitda bir paytlar parchalangan va tarqoqligi kuchaytirilgan Turkiston – Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligini chuqurlashtirish yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Chunki Markaziy Osiyo davlatlari ildizi juda olis o'tmishtga borib taqaladigan siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ruhiy jihatdan bir-biriga bog'liq aloqaga ega.

Soxtalashtirilgan tarix bir kun fosh bo'ladi, har qanday yolg'onning umri ma'lum vaqt bilan chegaralangan, undan o'tib yashay olmaydi. Yolg'on fosh bo'lishi bilan madaniy inqiroz sodir bo'ladi. Soxtalashtirilgan tarix ijtimoiy muammolarga – jamiyatda parokandalik, marginallik holatlariga sabab bo'ladi. Tarixni soxtalashtirish orqali inson maqsad emas, balki vositaga aylanadi. Tarix insonni, xalqni manipulyatsiya qilishning vositasiga aylantirilib, undan siyosiy va mafkuraviy maqsadlarda foydalilaniladi.

Milliy chegaralanishning o'tkazilishi tarixni soxtalashtirish uchun asoslar yaratib berdi. Chunki ungacha siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayoti bir bo'lgan xalqlarning kelajagiga chegara qo'yildi. Bu chegara faqat hudud bilan chegaralanmadni, balki, u chegara tarixga ham qo'yildi. Ilgari tarixi bir bo'lgan xalqlar yagona tarixni u meniki, bu seniki deb bo'lib olishga tushishdi.

Tarix darsliklarida vatanparvarlikni tarbiyalashga yo'naltirilgan va soxtalashtirilgan yolg'onlar o'zlikni shakllantirishga emas, aksincha o'zlikni parchalanishiga sabab bo'ladi.

Natijalar. Tarixni soxtalashtirishning oqibatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) Tarixni soxtalashtirish siyosiy, mafkuraviy maqsadlarini ko'zlab amalga oshirilgan bo'lib, bu milliy xavfsizlikka, mamlakat kelajagiga tahdid sifatida namoyon bo'ladi. Voqeа-hodisaning ahamiyati, muhimligi targ'ibot kanallari orqali yoritilib xalq manipulyatsiya obyektiga aylantiriladi.
- 2) Tarixni soxtalashtirish orqali ehtimoliy ziddiyatlar, adovat va kelishmovchiliklar uchun zamin tayyorlanadi. Nizolar va tushunmovchiliklar – tarixni noto'g'ri talqin qilish turli xalqlar o'rtaida nizolar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.
- 3) Faktlarni buzib ko'rsatish – tarixiy hodisalarning mohiyatini o'zgartirib talqin qilish milliy ong buzilishiga, o'z tarixidan xabardor bo'limgan avlodlar milliy qadriyatlarni qadrlamaslikka moyillik xavfini tug'diradi.
- 4) Ilmiy rivojlanishga zarar etkazish – tarixni soxtalashtirish ilm-fanning obyekativlik tamoyillariga zid bo'lib, ilmiy izlanishlarning samarasizligiga olib keladi.

Tarixni soxtalashtirishdan kim manfaatdor bo'ladi?

Tarixni soxtalashtirishning mafkuraviy jihatlari bo'lib, undan hokimiyatni mustahkamlash, siyosiy yutuqlarini kuchaytirish maqsadida amalga oshiradilar. Yoki olib borilayotgan siyosatni "ijobiy" jihatlarini ko'z-ko'z qilish uchun foydalanish ko'zlanadi.

Tarixni soxtalashtirishning sivilizatsiyaviy asoslari mavjud. Bu yevropasentrizm qarashlarida, tarixiy voqealarni soxtalashtirishda ko'zga tashlanadi. Yevropa bilan bog'liq dalillarga asosiy e'tibor qaratilib uning afzalligini asoslashga urinishlar sodir bo'ladi. Shuningdek, avtoxtonlik masalasida o'zini ma'lum hududning tub joy aholisi deb, qolgan etnik birliklarni tarixiy madaniyatga aloqasi yo'q deb hisoblashga intilish va boshqalarda ko'zga tashlanadi.

Tarixni soxtalashtirish geosiyosiy kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Ma'lum hududdagi xalqlar o'rtasida nifoq solish, nizo urug'ini sepish uchun tarixiy ma'lumotlarni soxtalashtirishdan foydalanish mumkin. Azaldan bir hududda sivilizatsion ildizga ega xalqlarni bir -biridan imkon qadar uzoqlashtirish, birlashishga yo'l qo'ymaslik maqsad qilingan bo'ladi.

Tarixni soxtalashtirishga totalitarizm va avtoritarizm sharoitida imkoniyat yaratiladi. Chunki jamiyatda erkinlikning yo'qligi, tagi puch g'oyalar(amaliyot bilan yoki real hayotdan uzoq)ni ilgari surilishi tarixni soxtalashtirishni taqozo qiladi.

Xulosa. Tarixni soxtalashtirishning bir qancha oqibatlari bo'lib, uning siyosiy, xavfsizlik, ma'naviy, ijtimoiy va boshqa tahdidlari mavjudki, ular bilan hisoblashmaslik jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bu xavf-xatarlar quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, tarixni soxtalashtirish xalqning umumiy tarixiy tafakkuri shakllanishining konstruksiyasiga zarar etkazadi. Tarixiy dalillarni g'arazli maqsadlarni ko'zlab talqin qilish orqali ommaning tarixiy tafakkuri va o'tmish haqidagi tasavvurlari ko'zlangan maqsadning qo'lloviga xizmat qilishga yo'naltirishga erishiladi;

tarixni soxtalashtirish davlatning suvereniteti, barqarorligi va qadriyatlariga zarar etkazadigan, mustamlakachilik va qaramlikka g'oyaviy xizmat qiladigan milliy xavfsizlikka tahdid ko'rinishida namoyon bo'ladi;

tarixni soxtalashtirish milliy manfaatlarga zid bo'lib, qadriyatlarning transformatsiyasiga, o'zlikdan begonalashish va davlatchilikning tarixiy asoslariga zarar etkazadi;

tarixni soxtalashtirish totalitarizm va kuch orqali boshqarishga asoslangan tuzumlarga xos bo'lib, siyosiy liderlarning tor maqsad va manfaatlarini ko'zlab tarixiy dalillarni buzib talqin qilish sodir bo'ladi;

tarixni soxtalashtirish geosiyosiy kuchlar o'rtasida o'zlarining manfaatlarini ko'zlab, tarixiy voqealarni g'oyaviy kurash quroli sifatida qo'llash ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Bunda dalillar yashiriladi yoki haqiqatga zid ravishda talqin qilinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Boymirza Hayit Turkiston Rossiya va Xitoy oralig'ida. –Toshkent: Yangi asr avlod, 2023. –B. 511.
2. Детей нужно воспитывать на позитивных исторических примерах. – Данилов // РИА Новости [Информационный портал]. URL: // old. Rian.ru/ edu_analysis/ 20090828/182803972 html
3. G'ulomov A. Turkiston legioni: haqiqat va uydirma// Tafakkur. 2024. №1 72-83-b.
4. Karimov Y. Tarixiy tafakkur ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida // "Inson-jamiyat-davlat: ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot omillari" mavzuida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2024. -91-92 b.
5. Ливцов В.А., Пожидаев А.С. Проблема фальсификации истории в контексте реализации государственной политики сохранения историко-культурного

- наследия // Вестник Поволжского института управления. 2017. Том 17. № 5 стр. 108-115.
6. Лушин А.Н. Фалсификация истории: теоретический подход к проблеме (на примере России) // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2-13, №23. Стр. 21-25.
7. Qarang: Алексеев С.В. Мифы и фалсификации в Российской истории // Знание. Понимание. Умение. 2015. №1 стр. 162-171.; Лигман Б.В. Методология современного мировоззрения о прошлом, истории и фалсификации истории.; Симон Г.В. Фалсификации истории второй мировой войны – прямая угроза национальной безопасности России // Великая Отечественная война: нравственные аспекты и историческое наследие. Материалы Всероссийской научно-теоретической конференции молодых исследователей: в 2 частях. – Санкт-Петербургский университет МВД России. Под редакцией Нижник Н. С. – 2015. – С. 190–192; Соколов Б. В. Вторая мировая: факты и версии. – М.: АСТ-ПРЕСС КНИГА. – 2005; Ханин С.Ф. Фалсификация истории как инструмент подрыва национальной безопасности // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2013. – №23. – С 33–36; Шумейко И. Вторая мировая. Перезагрузка. – М.: Вече, 2007 и др.
8. Rajabov Q. Kelajak soxtakorlikni kechirmas. // Tafakkur, 2021. №1. 4-17 –betlar.
9. Tarix shohidligi va saboqlari: Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtirilishi / Loyiha rahbari, mas'ul muharrir: D. Alimova - T.: Sharq, 2001. – B.393.
10. Вяземский В.В. Проблема фалсификации истории и общее историческое образование: теоретические и практические аспекты // Проблемы современного образования. – 2012. – №1. – С. 29–30

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).